

## IDIOMATIK IBORALARNING O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI QO‘LLANILISHI VA TARJIMA XUSUSIYATLARI

**Qahharova Mahliyo Soxib qizi**

Namangan davlat universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili talabasi

Email: mahliyoqahharova64@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18980806>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida keng qo‘llaniladigan idiomatik iboralarning o‘zaro ma’noviy o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Ba’zi birliklarni so‘zma-so‘z tarjima qilinish natijasida ma’no buzilishi mumkinligi ko‘rib chiqiladi va bu jarayon misollar bilan ko‘rsatib beriladi. Bundan tashqari, iboralarning madaniy kontekstdagi roli va tarjima jarayonida ularni mos ekvivalentliklar orqali ifodalash muhimligi asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** idiomatik ibora, tarjima, madaniy kontekst, semantika, ekvivalentlik.

**Annotation.** This article analyzes the semantic similarities and differences of widely used idiomatic expressions in English and Uzbek languages. It examines how literal translation of some units may lead to distortion of meaning and illustrates this process with relevant examples. In addition, the role of idiomatic expressions in cultural context and the importance of using equivalents in the translation process are substantiated.

**Key words:** idiomatic expressions, translation, cultural context, semantics, equivalence.

**Аннотация.** В данной статье анализируются семантические сходства и различия широко используемых идиоматических выражений в английском и узбекском языках. Рассматривается возможность искажения смысла при дословном переводе некоторых единиц, что подтверждается соответствующими примерами. Кроме того, обосновывается роль идиом в культурном контексте и подчёркивается важность их передачи посредством адекватных эквивалентов в процессе перевода.

**Ключевые слова:** идиома, перевод, культурный контекст, семантика, эквивалентность

### Kirish

Idiomatik iboralar har qanday tilning asosini tashkil qiluvchi birliklardan biri bo‘lib, so‘zning asl ma’nosidan farq qiladigan butun bir ifodani hosil qiladi. Ular kundalik muloqotda fikrlarni ta’sirli va boy bayon qilishga yordam beradi. Ammo har bir tilning tarixi va madaniy kontexti bir-biridan farq qilgani uchun ularni to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqa tilga tarjima qilish imkonsiz. Ko‘plab tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, idiomalarni so‘zma-so‘z tarjima qilish ularning ma’nosi va ta’sir kuchini yo‘qotishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun bu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi ba’zi keng tarqalgan idiomatik iboralar misol qilib olindi va ularning tarjima jarayonidagi muammolar (so‘zma-so‘z tarjimaning kamchiliklari va madaniy kontekstning ahamiyati) tahlil qilinadi.

### Usul

Ushbu tadqiqotda nisbatan kichik, ammo mazmunli namunalar tanlandi va solishtirma tahlil usuli qo‘llandi. Asosiy bosqichlar quyidagilar:

Ingliz va o‘zbek tilida keng ishlatiladigan bir nechta idiomatik iboralar tanlandi.

Har bir ibora bo‘yicha uning asl ma’nosi, qo‘llanilishi va tarixi o‘rganildi. Lug‘atlar va ilmiy adabiyotlardan foydalanib, iboralarning ingliz va o‘zbek tilidagi ekvivalentlari aniqlashga harakat qilindi.

Taqqoslash usuli yordamida har ikki tildagi iboralar semantik va madaniy jihatdan tahlil qilindi; so‘zma-so‘z ma’no va tarjima ekvivalentlikka erishish strategiyalari baholandi.

### Natijalar

Tahlil natijalariga ko‘ra quyidagilar aniqlangan:

So‘zma-so‘z tarjima: O‘rganilgan iboralarning aksariyati so‘zma-so‘z tarjima qilinganda asl ma’nosi o‘zgacha yoki mutlaqo yo‘qoladi. Masalan, inglizcha “raining cats and dogs” iborasini «mushuklar va itlar yog‘moqda» deb tarjima qilinsa, u kuchli yomg‘ir tushayotganini anglatadi, ya’ni so‘zma-so‘z tarjima asl ma’noni ifoda eta olmaydi. Shuningdek, “break a leg” (“omad tilab qo‘yaman”) iborasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri “oyog‘ingni sindir” deb tarjima qilish xuddi shunday tushunarsiz bo‘ladi.

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

Ikki tildagi ekvivalent: Ba’zi hollarda ingliz va o‘zbek tilida bir xil ma’noni bildiruvchi iboralar uchraydi, ammo ular turli obrazlar yordamida ifodalanadi. Masalan, inglizcha “when pigs fly” (“hech qachon” ma’nosida) iborasi o‘zbek tilida “tuyani dumi yerga tekkanda” tarzida ifodalanadi. Bu misollar ikki til idiomalari orasidagi mazmuniy o‘xshashliklarga guvohlik beradi. Masalan, inglizcha “You’re playing with fire” iborasi o‘zbek tilida ham xuddi shunday “Sen olov bilan o‘ynashapsan” degan ma’noni ifodalaydi. Shu bilan birga, ingliz tilidagi “There is no smoke without fire” iborasi o‘zbek tilida “Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi” tarzida ishlatiladi.

Madaniy kontekst: Tadqiqot ko‘rsatdiki, idiomatik iboralar o‘z ildizlari bo‘lgan madaniy va tarixiy kontekstga qattiq bog‘liq. Masalan, o‘zbekcha “To‘nini teskari kiyib olmoq” iborasi qadimda oddiy xalq tomonidan kambag‘allik va janjal vaqtida to‘nning tashqi tomoni kir bo‘lib qolmasligi yoki qon tegib ketmasligi uchun teskari kiyib olingan, shuning uchun uning ma’nosini tushunish uchun bu tarixiy ma’lumotni bilish zarur. Agar tarjimon bu madaniy fonni hisobga olmasa, iborani xato tarjima qilishi mumkin. Umuman olganda, idiomalarni to‘g‘ri tushunish va tarjima qilish uchun ularning manbai bo‘lgan til madaniyati, tarixiy voqealar va ishlatilish an‘analari inobatga olinishi lozim.

### **Muhokama**

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, idiomatik iboralarni tarjima qilishda har doim so‘zma-so‘z yondashuv to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki idiomatik iboralar madaniy kontekstga kuchli bog‘langan ifodalar bo‘lib, ularning haqiqiy ma’nosini tushunish uchun tilning semantik va kontekstual xususiyatlari, tarixiy ildizlari o‘rganilishi kerak. So‘zma-so‘z tarjima aksariyat hollarda ibora ma’nosini yetkaza olmaydi. Shu sababli tarjimonlar va til o‘rganuvchilarga idiomalarni ma’nosiga mos ravishda ifodalashga urg‘u berish muhim. Ta’lim jarayonida talabalarga idiomalarni kontekstdagi ma’nosi bilan birga o‘rgatish, ularni bittadan “ekvivalent” bilan emas, balki bo‘shliqqa tushirish usullari (parafraz yoki mos keluvchi iboralar) ko‘rsatish tavsiya qilinadi. Masalan, tarjima chog‘ida “kill two birds with one stone” iborasini “bir o‘q bilan ikki quyovni urmoq” ekvivalentiga almashtirish, yoki “when pigs fly” iborasi o‘rniga “tuyani dumi yerga tekkanda” o‘xshashini topish ma’qul.

Xulosa qilib aytganda, idiomatik iboralarni tarjima qilishda ularning madaniy mohiyatini saqlab qolish birinchi o‘rinda turadi. So‘zma-so‘z tarjima o‘rniga ma’no ekvivalentlikka erishish uchun tarjimon ko‘pincha o‘xshash obrazli iboralar yoki aniq tushuntiruvchi ifodalarni izlashi kerak. Bu esa til sharoiti va madaniy kontekstga chuqur munosabat talab qiladi. Yangi til o‘rganuvchi talaba uchun idiomatik iboralarni mustaqil o‘rganish va ularning tarjima usullarini tahlil qilish tilni chuqurroq anglashga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.G‘aniyeva T.A., Maxmudova N.Z. (2024). Ingliz va o‘zbek idiomalarida ekvivalent topish masalalari. *Science and Education* журналы.
- 2.Yusupov A.L. (2014). Inglizcha–o‘zbekcha idiomalar lug‘ati. Toshkent.
- 3.Vula E., Tyfekçi N. (2024). The Complexities of Translating Idioms Across Cultural Boundaries. *Academic Journal of Interdisciplinary Studies*, 13(2).